

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

O‘ZBEK TILIDA SINTETIK VA ANALITIK FE’L SHAKLLARI TAHLILI

Yuldasheva Sadoqat Bahodir qizi

Andijon davlat chet tillari instituti stajyor doktoranti

Andijon viloyati, Andijon shahri. O‘zbekiston.

ANNOTASIYA Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi fe’lning o‘ziga xos jihatlariga yangi qarashlar yoritilgan. Ushbu qarashlar ham nazariy, ham metodik xarakterdagi izlanishlar uchun muhimdir. Fe’l valentligi hamda fe’lning tarkibiy va mazmuniy jihatlarining bog‘liqligini o‘rganish ushbu izlanishlarni boyitadi.

Kalit so‘zlar: fe’l, so‘zshakl, kompozisiya, qo‘shma fe’l, ko‘makchi fe’l.

АНАЛИЗ СИНТЕТИЧЕСКИХ И АНАЛИТИЧЕСКИХ ГЛАГОЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ В данной статье представлены новые взгляды на специфику узбекского глагола. Эти взгляды важны для исследований как теоретического, так и методического характера. Изучение взаимосвязи между валентностью глагола и структурными и семантическими аспектами глагола обогащает эти исследования.

Ключевые слова: глагол, словоформа, композиция, составной глагол, вспомогательный глагол.

ANALYSIS OF SYNTHETIC AND ANALYTIC VERB FORMS IN UZBEK LANGUAGE

ABSTRACT This article presents new views on the specifics of the Uzbek verb. These views are important for both theoretical and methodological research. Studying the relationship between the valence of the verb and structural and semantic aspects of the verb enriches these studies.

Keywords: verb, word form, composition, compound verb, auxiliary verb.

Kirish. Tilshunoslikda so‘z shaklining ikki turi – sintetik va analitik shakli borligi tan olingan. Sintetik shakl shakl yasovchi morfema bilan, analitik shakl yordamchi so‘z, ya’ni ko‘makchi va ko‘makchi fe’l bilan hosil qilinishi ta’kidlab o‘tilgan. Sintetik shaklning mohiyati keng qamrovlidir. Masalan: qilyapman, qilyapsan, qilyapti so‘zida qil fe’lining hozirgi zamon va shaxs-son shakllari hisoblanadi. Lekin qilib qo‘y, qilib ber, qilib berib tur, qilib berib tura qol analitik fe’llarning qil fe’lining analitik shakli bo‘lishi alohida o‘rganilmagan.

Fe'ning so'z o'zgartirish tizimi, boshqa so'z turkumlariga qaraganda, ancha boy va hilma-xildir. U nafaqat agglyutinatív tillarga xos bo'lgan sintetik usulga ega, balki analitik usulga ham egadir.

So'z bo'lmagan til birliklarining, jumladan, so'z birikmalarining so'zga aylanishi leksikalizasiya deyiladi. So'z birikmalari bir necha xil yo'l bilan, masalan, ixchamlashuv, terminlashuv, analitik usul, xususiý leksikalizasiya, grammatizasiya, affiksasiya yo'llari bilan so'zga aylanadi.

O'zbek tilshunosligida so'z shaklining ikki turi, ya'ni morfemalar bilan hosil bo'ladigan sintetik shakli va ko'makchilar hamda ko'makchi fe'llar bilan hosil ilinadigan analitik shakli borligini tan olingan. Lekin sintetik shaklning morfema(affiksa) bilan, analitik shaklning ko'makchi va ko'makchi fe'l bilan hosil bo'lishini qayd etishning o'zi ulardan har birining mohiyati haqida aniq tasavvur bermaydi. Shu bois, ko'makchi e'llar bilan hosil qilinadigan analitik fe'llar haqida fikr yuritishdan avval shunday til birliklarini hosil qiluvchi ko'makchi fe'llarning shakl yasovchi morfemalardan farqli xususiyatlarini aniqlab olishga to'g'ri keladi. Qolaversa, o'zbek tilshunosligida bu masala yuzasidan fikr-mulohazalar mavjudki, ularga ham, qisqa tarzda bo'lsa-da, munosabat bildirilib o'tish kerak

Ma'lumki, adabiyotlarda morfemalarning lug'aviy ma'noga ega o'lmagan, so'z yasash yoki so'z shaklini yasash uchun xizmat qiladigan til birligi ekani qayd etilgan. Qo'shma so'z, ya'ni qo'shma fe'l deganda, semantik jihatdan yaxlitlangan yangi ma'noli yangi leksik birlik tushuniladi.

Tilshunoslikda yaratilgan ko'plab asarlarda fe'lda ifodalanuvchi muayyan xabar qonunan o'z subektiga ega bo'lishi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, fe'l ma'lumoti aslida mantiqiy subektning faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Fe'l ma'nosidagi harakatning sub'ekti doimo agens bo'lib kuzatiladi. Fe'l semantik maydonining har bir semantik guruhini tashkil etuvchi til birliklari o'ziga xos agensga ega. Chunki ob'ektiv borliqdagi turlicha faol, nafaol harakatlarni aslida agens yuzaga keltiradi. Agens fe'llardagi harakatning manbaini o'zida moddiylashtiruvchi mantiqiy sub'ekt semantik aktantdir. Agens valentligi o'zbek tilidagi qilmoq fe'lining zaruriy valentligi hisoblanadi. Chunki fe'ning harakatni agens aktanti bilan birga ifodalashi ularning eng muhim semantik qobilyatidir. Shunga ko'ra fe'l gapda agensni o'zida tashuvchi va ifodalovchi bo'ladi. Fe'ning o'z ma'nosida namoyon bo'lgan harakatning bajaruvchisi, agensi bilan anglatishi uning bosh semantik vazifasi sanalib, bu fe'ning gap bo'la olish imkonini belgilaydi. Ta'kidlash zarurki, fe'l ma'nosidan, unda namoyon bo'lgan harakatdan uning mantiqiy agensini ajratish mutlaqo mumkin emas. Negaki, muayyan harakat akti bevosita o'z bajaruvchisining mavjudligini bildirsa, bajaruvchining mavjudligi bevosita muayyan harakatning yuz berishini anglatadi. Buning ustiga, semantik nuqtai nazardan muayyan harakat kim tomonidan bajarilsa, shu eng asosiy qatnashuvchi hisoblanadi. Shunga ko'ra agens valentligining harakat fe'llarida zaruriy valentlik hisoblanishi qonuniy aksiomadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Hozirgi davrda fe'l so'z turkumining semantikasi o'ziga xos valentliklarga ega ekanligi ko'pchilik tilshunos

olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etmoqda. Xususan, rus tilshunosligida fe’ning semantik strukturasi yaxlit halda o‘rganilgan. Bunga Novikov, Vasilev, Apresyan kabi olimlarning ilmiy izlanishlarini misol qilishimiz mumkin. O‘zbek tilshunosligida ham bu borada bir talay ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, I.Qo‘chqortoevning ilmiy ishlarini alohida ta’kidlab o‘tmoq lozim.

Azim Hojiev ta’biri bilan aytganda, “Qo‘shma so‘z birdan ortiq negizdan tashkil topadi. Sodda so‘zlarda esa negiz bita bo‘ladi”. Qo‘shma so‘zlar asosan bir bosh urg‘u urg‘u bilan aytilgani uchun talaffuzda bo‘g‘in miqdori teng bo‘lgan sodda so‘zlarga o‘xshab ketadi. Qo‘shma so‘z bilan sodda so‘zning farqi bu qadar aniq bo‘lishiga aramasdan, ayrim asarlarda ularni qorishtirish yoki farqlamaslik hollari uchrab turadi.

Qo‘shma so‘zlar bilan sodda so‘zlarni farqlashdagi eng ko‘p chalkashlik, noaniqlik, bir komponenti hozirgi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan, ammo shu til tariida ishlatilagn va boshqa tillarda ishlatiladigan so‘zlar misolida ko‘zga tashlanadi. Ba’zi affiksoidlar o‘zi mansub bo‘lgan so‘zdan, ya’ni aslidan shaklan farq qilmaydi, ammo u bilan semantik aloqasi uzilgan bo‘ladi. Masalan, uy qilayotgan fe’lining so‘nggi qismi yotmoq fe’lidan bo‘lib, shu shaklda u so‘z mustaqil qo‘llana oladi. Paxta uyumida yotgan bola kabi. Biroq bu qilayotgan so‘zi tarkibidagi shakli (-yotgan) sifatdosh yasovchi affiks vazifasida bo‘lib, u endi yotmoq fe’lining leksik ma’nosi bilan bog‘lanmaydi: sabr qilayotgan ayol, ovqat qilayotgan qiz kabi. Qilayotibdi, qilayotir kabi fe’l formolari tarkibidagi -yotib, -yotir elementlari ham huddi shu tipdagi affiksoidlardir

Qo‘shma so‘zlarning yasalishi tilda so‘z yasalishining eng qadimiy bir usuli bo‘lib, u mahsuldorlik jihatidan affiksasiyadan keyin ikkinchin o‘rinda turadi va lug‘at boyligini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Negiz va affiksdan tashkil topgan so‘zlarning yasalishi affiksasiya deyilgani kabi, birdan ortiq negizdan tuzilgan so‘zlarning yasalish usuli ham muayyan bir termin bilan atalishi lozim. Turkologiyada bu usul sintaktik, so‘z qo‘shish, negiz qo‘shish, kompozisiya usuli, analitik usul kabi turli terminlar bilan atalib kelinadi. Bu terminlarning ko‘pi qo‘shma so‘zlarning yasalish yo‘llarini to‘la qamrab olomasligi, ularni qo‘shma so‘z yasalishiga nisbatan qo‘llash to‘g‘ri bo‘lmasligi ko‘pgina tilshunos olimlar tomonidan aytib o‘tilgan. Bu o‘rinda Azim Hojievning “o‘zak-negiz” qo‘shish yo‘li bilan so‘z yasalishini kompozisiya usuli deb atashi ma’qul(6,7). Jahon tilshunosligida qo‘shma so‘zlarning “kompozita” deb atalishi ham bu fikrning to‘g‘riligini ko‘rsatadi.

Fe’llarning analitik formasi bilan qo‘shma fe’llarning bir-biridan farqi shundaki, fe’llarning analitik formalarida ko‘makchi qismni tashlash bilan shu leksik ma’no saqlanaveradi.

Masalan, ozod qilmoq, ovqat qilmoq, sabr qilmoq, bog‘ qilmoq kabi birikuvlarida leksik ma’no ozod va qilmoq, ovqat va qilmoq, bog‘ va qilmoq so‘zlarining har ikkisidan birgalikda anglashilsa, sotib qo‘ymoq, tashlab yubormoq, o‘rtanib ketmoq, yiqila bermoq tipidagi birikuvlarda, ikkinchi komponent tashlab yuborilsa ham, birinchi komponentdan ayni shu leksik ma’no anglashilaveradi.

O‘zbek tili analitik fe’llari bo‘yicha olib borilgan kuzatishlardan ma’lum bo‘lmoqdaki, bu mavzuni yoritishda quyidagilar e’tiborga olinishi lozim:

1. Analitik fe’llarni yasama ya’ni hosila birlik sifatida tadqiq etish.

2. Hosila birlik sifatida ularning tarkibiy qismlarga bo‘linishi;

1) bir etakchi va bir ko‘makchi fe’ldan tarkib topgan analitik fe’llar: xamir qilib chiqdi, uy qilib oldi;

2) ko‘makchi qismida birdan ortiq ko‘makchi fe’l bo‘lgan analitik fe’llar: chiroyli qilib bera qol, vazifani qilib berib tura qol.

3. Yasama birliklarning mohiyati tarkibiy qismlari mohiyati asosida yuzaga kelishi.

4. Bu jihatdan analitik fe’llarga xos farqli xususiyatlar, ya’ni mohiyati tarkibiy qismlarga xos mohiyat asosida yuzaga keladigan hamda bunday xususiyatga ega bo‘lmagan analitik fe’llarning mavjudligi va buning sabablari.

5. Analitik fe’lning mohiyati, ya’ni unga xos ma’noning mohiyati grammatik va boshqa turdagi ma’no bo‘lish masalasi.

6. Analitik fe’lning paradigmaga munosabatu ya’ni kategoriyal shakl bo‘lish va bo‘lmasligi.

7. Mohiyatiga ko‘ra analitik fe’llarning qanday til birligi bo‘lishini belgilash.

Keltirilgan eng asosiy vazifalarning o‘zidanoq ma’lum bo‘lyapdiki, shu tarzda ish olib borilgandagina, o‘zbek tilining ko‘makchi fe’llarigina emas, balki ular yordamida hosil bo‘ladigan til birligi – analitik fe’llar o‘rganilgan bo‘ladi. Bu bilan shu til birligining va u bilan bog‘liq til hodisalarining mohiyatini to‘la va to‘g‘ri yoritish imkonini tug‘diradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda kuzatish, so‘rovnoma o‘tkazish va statistic metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘zbek tilidagi harakat fe’llarining semantik maydonidagi barcha birlashtiruvchi va farqlovchi semalar o‘ziga xos agens valentliklariga ega.

Harakat fe’li gapda kesim bo‘lib kelar ekan, uning agensi deyarli ega bilan mutanosib bo‘ladi. Agens muayyan harakatning aniq bajaruvchisini anglatadi. Agensning namoyon etuvchisi, asosan, bosh kelishikdagi so‘zda ifodalanadi. Eganing bosh kelishikda kelishi uning semantik-sintaktik tabiatiga mos grammatik qonuniyatidir.

Masalan: Qobil bobo bir kechada pishiq g‘ishtdan sag‘ana qildiribdi.

Bu gapda qildirmoq fe’li “barpo qilmoq, qurmoq, yasamoq” kabi nutqiy ma’nosi bilan qo‘llangan. Qurmoq, yasamoq shaxsga xos. Shunga ko‘ra uning agens valentli shaxs bildiruvchi Qobil bobo aktantida namoyon bo‘lgan. Ular “shaxs” semasi asosida klassemani tarkib topdirgan.

Ob’ekt valentligi fe’lning leksik semantic valentliklaridan biri va asosiysidir. U deyarli fe’l predikat semantikasi asosida yotadi. O‘timli fe’llar hamma vaqt ob’ekt valentligiga ega bo‘lishi barobar namoyon bo‘lgan aktant tushum kelishigi bilan shakllanadi. Ayrim holda tushum kelishigi bilan shakllanadi. Ayrim hollarda tushum kelishigi imkonda ham berilishi mumkin. Masalan: Qobil bobo bir kechada pishiq g‘ishtdan sag‘ana qildiribdi.

Kesim eng kichik hajmli gapni ham tarkib toptiradi va, shuningdek, gapni uyushtiruvchi markaziy bo‘lagi ham bo‘ladi.

Predikativlikni ham, kesimning ham uyushtiruvchanlik xususiyati asosan, fe‘l bilan ifodalanganda, faol holatda kuzatiladi. Shuningdek, fe‘l kesim uchun juda ham moslangan so‘z turkumi hisoblanadi. Agar gap kesimi fe‘l bo‘lsa, uning, ya‘ni ayni fe‘l kesimning valentligi gap qolipini belgilaydi. Fe‘l kesim o‘z valentligi asosida nutq yo‘l qo‘ygan vaziyatga qarab, o‘z aktantlarini qabul qiladi, ya‘ni shu orqali fe‘l semantikasidagi uzvlar namoyon bo‘ladi. Muayyan valentlikning aktanti esa gapning muayyan bo‘lagi ham hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation). Ob‘ekt valentlik leksik-semantik hisoblanib, doimo agens harakati holatida o‘tgan. Shuningdek, harakat yoki holat natijasi bo‘lgan predmetda namoyon bo‘ladi. U o‘z aktanti bilan sememalarining narsa va ba‘zan shaxs ifodalovchi semasi bo‘yicha klassemani tarkib toptiradi. U vositasiz to‘ldiruvchi vositasida ham, agens bilan birga ega vazifasida keladi. Fe‘l nisbati yoki nutq vaziyatiga ko‘ra uning sintaktik vazifasi o‘zgarishi mumkin.

Miqdor valentligi fe‘lning vositali semantik valentliklaridan biridir. “Ikki soat ichida barcha ovqatlarni qildi” sintagmasiga e‘tibor berilsa, ikki soat ichida qildi birikmasidagi miqdor valentligining aktanti ikki soat so‘zi fe‘l bilan klassemani tarkib toptirmaydi. Fe‘l o‘zining ob‘ekt valentligi aktanti ovqat so‘zi bilan “ozuqa” bildiruvchi klassemani, ob‘ekt aktanti ovqat so‘zi miqdor aktanti ikki soat so‘zi bilan “miqdor” semasiga ko‘ra klassemani tarkib topdirgan. Bu o‘rinda qildi fe‘li o‘zining miqdor valentligini ob‘ekt valentligi aktanti semantikasi orqali orttirgan. Shuningleksik-semantik valentlik emas, vositali semantik valentlik deb atash to‘g‘ri bo‘ladi.

Kesim hamma vaqt ma‘lum zamonni ko‘rsatib keladi. Fe‘l kesimlar barcha zamon shaklini qabul qila oladi. Shunga ko‘ra kesim vazifasidagi fe‘llar payt valentligiga ega bo‘ladi. Ular o‘z zamon ko‘rsatkichiga payt holi vazifasidagi aktantni qabul qiladi.

Masalan: Kechga yaqin supa chetiga joy qildi.

“Joy qildi” fe‘li o‘tgan zamonni bildirgani uchun “Ukechga yaqin supa chetiga joy qildi”gapida vaqtning ma‘lum bir qismini bildiruvchi aktant bilan namoyon bo‘lgan aktant deyarli payt ravishlarida yoki vaqt bildiruvchi otlarda namoyon bo‘ladi.

Masalan: “Qobil bobo bir kechada pishiq g‘ishtdan sag‘ana qildiribdi” birikuvida esa qildiribdi fe‘l kesimining payt valentligi bir kecha ot birikuvda namoyon bo‘lgan. Har ikki misoldagi payt aktanti ham sintaktik jihatdan payt holi vazifasini o‘tagan.

Demak, zamon ko‘rsatkichi kesim vazifasidagi fe‘llarga payt valentligini ilova qiladi va u payt ravishi shuningdek, payt bildiruvchi otlarda ifodalangan aktantlarda namoyon bo‘ladi.

Fe‘lning ko‘rib o‘tilgan grammatik xususiyatlari tadqiqi fe‘l turkumiga doir nazariy tadqiqotlar olib borish uchungina emas, lingvodidaktik izlanishlar uchun ham zaruriydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Rahmatullaev Sh. Nutqimiz ko‘rki – Toshkent, 1970

2. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Fan, 1975
 3. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. – Toshkent: Fan, 1976
 4. G‘ulomov A.G‘., Asqarova M. A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘rta va oliy maktab, 1961.
 5. Hojiev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar. – Toshkent, 963.
 6. Hojiev A. Fe‘l. – Toshkent: Fan, 1973
 7. Hojiev A. O‘zbek tilida analitik fe‘llarning mohiyati. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2012.
- 3-son